

2020- yil yakuni



SURXONDARYO VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALAR TO‘G‘RISIDA



**Surxondaryo viloyat
statistika boshqarmasi**

Fan va innovatsiya

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori mazkur yo'naliishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari 4 ta sektorga ajratib ko'r-satilgan:



Davlat sektori


Tadbirkorlik sektori

Oliy ta'lim sektori

Xususiy notijorat sektor

2020- yil yakuni


Surxondaryo viloyatida hududlar bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil oxiriga, birlikda)



Innovatsion korxona bu – belgilangan statistik hisob davrida ma'lum bir innovatsiyani joriy qilgan korxona hisoblanadi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, innovatsion ishlarni bajarigan tashkilotlar soni 442 tani tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahriga to'g'ri keldi va uning soni 137 tani tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Muzrabot tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 3 tani tashkil etdi.

2020- yil yakuni

**O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar
ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2020- yil oxiriga, birlikda)**



Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot uchun yangi, ichki bozor uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi. 2020- yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha jami soni 441 birlik bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Termiz shahrida 136 ta va Sherobod tumanida 53 tani tashkil etgan. Eng kam ko'rsatkich esa Muzrabot tumaniga to'g'ri keldi, ya'ni 3 tani tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati bo'yicha joriy qilingan innovatsiyalar soni (2020- yil oxiriga, birlikda)



Innovatsiyalar 3 turga bo'linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2020- yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 442 tani tashkil etib, shundan 441 tasi texnologik innovatsiyalar, Innovatsion faoliyat - g'oyalari transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo'lgan faoliyat hisoblanadi.